



**KICHIK ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA AYLANMA MABLAG'LARNING
OPTIMAL TARKIBI VA ULARNING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI
(TIKUVCHILIK KORXONALARI MISOLIDA)**

Qo'chqarov Baxtiyor

Namangan davlat texnika universiteti

ORCID: 0009-0005-7727-7344

bahtiyorkuchkarov85@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik ishlab chiqarish korxonalarida aylanma mablag'larning optimal tarkibi va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Tikuvchilik sanoati misolida, aylanma mablag'lar korxonaning ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi va ularning to'g'ri boshqarilishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun zarurdir. Maqolada aylanma mablag'larning asosiy tarkibiy qismlari, ularning optimal nisbatlari va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari baholanadi. Shuningdek, aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalari va zamonaviy texnologiyalar yordamida ularning samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari kichik tikuvchilik korxonalari uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: aylanma mablag'lar, moliyaviy barqarorlik, kichik biznes, boshqarish strategiyalari, samaradorlik, innovatsiyalar, moliyaviy barqarorlik.

**ОПТИМАЛЬНЫЙ СОСТАВ ОБОРОТНЫХ СРЕДСТВ В МАЛЫХ
ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ
УСТОЙЧИВОСТЬ (НА ПРИМЕРЕ ШВЕЙНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ)**

Кучкаров Бахтиёр

Наманганский государственный технический университет

Аннотация. В данной статье анализируется оптимальный состав оборотных средств и их влияние на финансовую стабильность в малых производственных предприятиях. На примере швейной отрасли рассматривается важная роль оборотных средств в производственном процессе предприятия и необходимость их правильного управления для обеспечения финансовой стабильности. В статье оцениваются основные составные части оборотных средств, их оптимальные пропорции и показатели финансовой стабильности. Также представлены стратегии управления оборотными средствами и способы повышения их эффективности с помощью современных технологий. Результаты исследования содержат практические рекомендации для малых швейных предприятий, что поможет повысить их конкурентоспособность и обеспечить финансовую стабильность.

Ключевые слова: оборотные средства, финансовая стабильность, малый бизнес, стратегии управления, эффективность, инновации, финансовая стабильность.

THE OPTIMAL COMPOSITION OF WORKING CAPITAL IN SMALL ENTERPRISES AND ITS IMPACT ON FINANCIAL STABILITY (CASE STUDY OF SEWING ENTERPRISES)

Kuchkarov Bakhtiyor

Namangan State Technical University

Abstract. *This article analyzes the optimal composition of working capital and its impact on financial stability in small manufacturing enterprises. Using the textile industry as an example, it examines the important role of working capital in the production process of a company and the necessity of proper management to ensure financial stability. The article evaluates the main components of working capital, their optimal ratios, and financial stability indicators. It also presents strategies for managing working capital and ways to enhance their efficiency through modern technologies. The research findings include practical recommendations for small textile enterprises, which will help increase their competitiveness and ensure financial stability.*

Keywords: *working capital, financial stability, small business, management strategies, efficiency, innovations, financial stability.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik ishlab chiqarish korxonalarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish qobiliyatiga bog'liq. Ayniqsa, aylanma mablag'lar korxonaning kundalik faoliyatini ta'minlovchi asosiy moliyaviy vosita sifatida alohida ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini saqlash, xom ashyo va materiallarni o'z vaqtida ta'minlash, tayyor mahsulotlarni sotish va qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy zaxirani tashkil etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat va tikuvchilik sohasi yalpi ichki mahsulotning 27,9 foizini tashkil etib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Tikuvchilik korxonalari o'zining o'ziga xos xususiyatlari - xom ashyo va materiallarning keng assortimenti, ishlab chiqarish jarayonining mavsumiylik xarakteri, moda tendentsiyalarining tez o'zgarishi - tufayli aylanma mablag'larni boshqarishda maxsus yondashuvni talab qiladi. Ushbu omillar aylanma mablag'larning optimal tarkibini to'g'ri aniqlash va ularni samarali boshqarish masalasini korxonalar uchun dolzarb vazifaga aylantiradi.

Hozirgi kunda ko'plab tikuvchilik korxonalari aylanma mablag'larni noto'g'ri boshqarish oqibatida jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Zahiralarining ortiqcha to'planishi mablag'larning muzlab qolishiga, pul mablag'larining yetishmasligi to'lov qobiliyatining pasayishiga, debitorlik qarzlarning nazorat qilinmasligi esa likvidlik muammolariga olib kelmoqda. Bu muammolar, o'z navbatida, korxonaning moliyaviy barqarorligini buzadi va uning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu sababli, aylanma mablag'larning optimal tarkibini ilmiy asosda aniqlash, ularning har bir elementi - zahiralar, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari va boshqa qisqa muddatli aktivlar - o'rtasida maqbul nisbatni o'rnatish hamda bu resurslarni samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ayni shu muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lib, tikuvchilik korxonalari misolida aylanma mablag'larning optimal tarkibi va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini kompleks tahlil qilishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Aylanma mablag'larning optimal tarkibi va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot doirasida mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Asosiy fondlar va aylanma mablag'larning samaradorligi masalalari Avdeyeva va Proskurinaning (2013) tadqiqotlarida batafsil yoritilgan. Mualliflar asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatib, bu masala aylanma mablag'lar bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ularning ishida fondlardan foydalanish koeffitsiyentlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari asosiy e'tibor markazida turadi.

Korxona kapitalini boshqarish xususiyatlari Garayevning (2021) tadqiqotida ko'rib chiqilgan. Muallif asosiy kapitalning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilib, zamonaviy bozor sharoitida kapital boshqaruvining murakkabligi va ko'p qirraligi haqida muhim xulosalar beradi. Bu ish aylanma mablag'larni keng moliyaviy kontekstda tushunishga yordam beradi.

Amortizatsiya ajratmalari va ulardan maqsadli foydalanish Edronova va Garaxinaning (2008) ilmiy ishida kompleks baholash usullari orqali o'rganilgan. Mualliflar amortizatsiya ajratmalarini hisoblashning zamonaviy usullarini taklif etib, ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqqanlar. Bu tadqiqot korxonaning uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish masalalarini tushunishda muhim asos yaratadi.

Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari Salimyanova va Tarasovning (2017) ishida iqtisodiy xavfsizlik kontekstida ko'rib chiqilgan. Mualliflar tashkilot asosiy fondlaridan foydalanishni yaxshilashning huquqiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarini kompleks tahlil qilganlar.

O'zbek mualliflarining hissasi tadqiqot sohasida alohida ahamiyatga ega. Burxanov va Hamdamovning "Moliyaviy menejment" (2020) darsligi zamonaviy moliyaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyotining asosiy tamoyillarini o'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarga kiritdi. Ushbu asar moliyaviy resurslarni rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilish masalalarini Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitiga moslashtirilgan holda yoritadi.

Voxobov, Ibroximov va Ishonqulovning (2005) "Moliyaviy va boshqaruv tahlili" asari mahalliy korxonalar uchun moliyaviy tahlilning amaliy usullarini taqdim etadi. Mualliflar moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilishning o'zbek korxonalariga moslashtirilgan metodologiyasini ishlab chiqqanlar.

Adabiyotlar tahlilidan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

- aylanma mablag'lar va moliyaviy barqarorlik masalalari xorijiy va mahalliy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lsa-da, tikuvchilik sohasi korxonalariga maxsus yo'naltirilgan tadqiqotlar etarli emas;

- mavjud ishlar asosan umumiy nazariy yondashuvlarni taqdim etadi, ammo kichik tikuvchilik korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan amaliy tavsiyalar cheklangan;

- zamonaviy raqamli texnologiyalar (ERP tizimlari, sun'iy intellekt,) ning aylanma mablag'larni boshqarishga ta'siri mahalliy adabiyotlarda yetarli darajada o'rganilmagan;

- ekonometrik modellashtirish usullarining tikuvchilik korxonalariga qo'llanilishi bo'yicha kompleks tadqiqotlar zarur;

Shu sababli, mazkur tadqiqot mavjud adabiyotlardagi bo'shliqlarni to'ldirish va tikuvchilik korxonalarini uchun aylanma mablag'larni boshqarishning amaliy yo'riqnomasini yaratish maqsadida amalga oshirilmoqda. Tadqiqot mahalliy va xorijiy tajribani umumlashtirgan holda, O'zbekiston tikuvchilik sanoati uchun maxsus ishlab chiqilgan tavsiyalar beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda kichik tikuvchilik korxonalarida aylanma mablag'larning optimal tarkibini aniqlash va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash uchun bir qator metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida normativ, tahliliy va ekonometrik modellashtirish usullari tanlangan.

Normativ usul – aylanma mablag'larning har bir komponenti uchun ilmiy asoslangan normativlar ishlab chiqiladi. Misol uchun, xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar uchun zahira normativlari formulalarga asoslanib hisoblanadi.

Tahliliy usul – korxonalarning o'tgan davrlardagi ma'lumotlari, aylanma mablag'larning aylanishi va samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganiladi. Bu usul orqali optimal tarkibni aniqlashda mavjud ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Ekonometrik modellashtirish – bu yondashuv yordamida aylanma mablag'lar va korxona faoliyati o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash uchun regressiya tahlili hamda korrelyatsiya tahlili o'tkaziladi. Bu jarayonda zamonaviy matematik va statistik usullar ishlatiladi, kelajakdagi ehtiyojlar bashorat qilinadi.

Natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi, bu esa kichik tikuvchilik korxonalari uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aylanma mablag'larning optimal tarkibi deganda ularning har bir elementi (xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarish jarayonidagi mahsulotlar, tayyor mahsulotlar, debitor qarzlari va pul mablag'lari)ning umumiy aylanma mablag'lardagi nisbati tushuniladi. Bu nisbatning to'g'ri belgilanishi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, likvidlik darajasini saqlash va rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish uchun zarurdir. Tikuvchilik korxonalari uchun moliyaviy barqarorlik muhim hisoblanib, bu soha mavsumiy o'zgarishlarga, moda tendentsiyalarining o'zgarishiga va raqobat kuchayishiga sezgir hisoblanadi (Egamberdiyev va Qudratov, 2004).

Bugungi kunda ko'plab tikuvchilik korxonalari aylanma mablag'larni samarasiz boshqarish tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu sababli biz kichik tikuvchilik korxonalari aylanma mablag'larning optimal tarkibini aniqlash va ularning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini baholashni maqsad qilib belgilab oldik. Bu maqsadda tikuvchilik korxonalari aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish, aylanma mablag'lar elementlarining optimal nisbatini aniqlash, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini baholash, optimal tarkibning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni vazifa etib belgiladik.

Tikuvchilik korxonalari aylanma mablag'larning asosiy tarkibiy qismlarini ko'rib chiqsak, birinchi navbatda zahiralar muhim o'rin tutadi. Zahiralar umumiy aylanma mablag'larning 60-70 foizini tashkil etadi va quyidagi elementlardan iborat: xomashyo va asosiy materiallar (mato, ip, tugma, fermuar, aksessuarlar), yordamchi materiallar (tirgich, igna, o'lchov asboblari), yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar. Xomashyo va materiallar zahiralarining ulushi odatda 35-40 foizni, yarim tayyor mahsulotlar 15-20 foizni, tayyor mahsulotlar esa 10-15 foizni tashkil qiladi.

Debitorlik qarzlari aylanma mablag'larning ikkinchi muhim qismi hisoblanadi va umumiy hajmning 15-25 foizini tashkil etadi. Bu qismga mijozlar va hamkor tashkilotlar oldidagi qarzlar, avans to'lovlari va boshqa qisqa muddatli talablar kiradi. Tikuvchilik korxonalari debitorlik qarzlarning yuqori ulushi mavsum o'zgarishlari va buyurtmalarning notekis taqsimlanishi bilan bog'liqdir.

Pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar aylanma mablag'larning 10-15 foizini tashkil qiladi. Bu qismga bank hisoblaridagi mablag'lar, kassadagi naqd pul va qisqa muddatli depozitlar kiradi. Tikuvchilik korxonalari uchun pul mablag'larining etarli miqdori ta'minlanishi muhim, chunki xomashyo narxlarining tez o'zgarishi va buyurtmalarning oldindan to'lanishi zarur bo'ladi.

Aylanma mablag'larning qolgan qismi (5-10 foiz) boshqa aylanma aktivlarni o'z ichiga oladi: oldindan to'langan xarajatlar, kelgusidagi davrlarga tegishli xarajatlar va qisqa muddatli investitsiyalar.

Aylanma mablag'larning optimal tarkibini aniqlashda normativ usuldan keng foydalaniladi. Bu usul har bir element uchun ilmiy asoslangan normativlarni ishlab chiqishga asoslanadi. Xomashyo zahiralari normativi quyidagi formula orqali hisoblanadi (Авдеева и Проскурина, 2013):

$$Nx.a. = Qk \times Tt$$

Bu yerda:

Nx.a. - xomashyo zahiralari normativi (so'm)

Qk - kunlik iste'mol hajmi (so'm)

Tt - ta'minot normativi (kun)

Ta'minot normativi yetkazib beruvchilar bilan shartnoma shartlari, transport vaqti, mavsum o'zgarishlari va bozor vaziyatini hisobga olgan holda aniqlanadi:

$$Tt = Ty + Ttr + Ts + Tz$$

Bu yerda:

Ty - yetkazib beruvchi bilan kelishuv bo'yicha muddat (kun)

Ttr - transport vaqti (kun)

Ts - sug'urta zahira (kun)

Tz - joriy zahira (kun)

Yarim tayyor mahsulotlar normativi ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi, kunlik ishlab chiqarish hajmi va qiymat koeffitsienti asosida hisoblanadi:

$$Ny = Tts \times Qk \times Kq$$

Bu yerda:

Ny - yarim tayyor mahsulotlar normativi (so'm)

Tts - ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi (kun)

Qk - kunlik ishlab chiqarish hajmi (so'm)

Kq - qiymat koeffitsienti (0 dan 1 gacha)

Tikuvchilik korxonalarida bu ko'rsatkich ayniqsa muhim, chunki mahsulot tikish jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqichda ma'lum miqdorda mablag' muzlatiladi (Qosimov, Aslanova va Ergashev, 2008).

Tahliliy usul o'tmish davr ma'lumotlari asosida optimal tarkibni aniqlashga qaratilgan. Bu usul aylanma mablag'larning aylanish tezligi, har bir element bo'yicha aylanish koeffitsienti va samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Tikuvchilik korxonalarida aylanma mablag'larning yillik aylanish soni odatda 4-6 marta tashkil etadi, bu boshqa tarmoqlarga nisbatan past ko'rsatkich hisoblanadi.

Ekonometrik modellashtirish usuli zamonaviy matematik va statistik usullar yordamida aylanma mablag'lar va korxona faoliyati natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga imkon beradi. Bu usul tikuvchilik korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda regressiya tahlili, korrelyatsiya tahlili va prognozlashtirish modellarini qo'llaydi va kelajakdagi ehtiyojlarni ilmiy asosda bashorat qilish imkonini yaratadi.

Regressiya tahlili tikuvchilik korxonalarida aylanma mablag'lar va asosiy faoliyat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun asosiy vosita hisoblanadi. Eng oddiy holda chiziqli regressiya modeli

$$Y = a_0 + a_1X_1 + a_2X_2 + \dots + a_nX_n + \varepsilon$$

formulasi orqali ifodalanadi. Bu yerda Y bog'liq o'zgaruvchi (aylanma mablag'lar miqdori), $X_1, X_2, \dots, X_n$ bog'liqsiz o'zgaruvchilar (ishlab chiqarish hajmi, sotish hajmi, mavsumiy omillar), a_0 ozod had, $a_1, a_2, \dots, a_n$ regressiya koeffitsientlari, ε esa tasodifiy xatolikni bildiradi.

Tikuvchilik korxonalari uchun maxsus ishlab chiqilgan regressiya modeli

$$A_{ay.h} = a_0 + a_1(IH) + a_2(SH) + a_3(MO) + a_4(XN) + \varepsilon$$

ko'rinishida bo'ladi. Bu formulada $A_{ay.h}$ -aylanma mablag'lar hajmini, IH -ishlab chiqarish hajmini, SH -sotish hajmini, MO -mavsumiy omilni, XN -xomashyo narxlari indeksini bildiradi.

Korrelyatsiya tahlili aylanma mablag'larning har xil komponentlari va tashqi omillar o'rtasidagi bog'liqlik kuchini o'lchash uchun qo'llaniladi. Pearson korrelyatsiya koeffitsienti

$$r = \frac{\sum (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum (x_i - \bar{x})^2 \times \sum (y_i - \bar{y})^2}}$$

formulasi orqali hisoblanadi. Bu yerda r korrelyatsiya koeffitsienti ($-1 \leq r \leq +1$), x_i , y_i o'zgaruvchilarning qiymatlari, $\bar{x}$, $\bar{y}$ o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatlaridir. Tikuvchilik korxonalarida odatda xomashyo zahiralari va ishlab chiqarish hajmi o'rtasida $r = 0,7-0,9$, tayyor mahsulot zahiralari va sotish hajmi o'rtasida $r = 0,6-0,8$, aylanma mablag'lar va mavsumiy omillar o'rtasida $r = 0,4-0,6$ korrelyatsiya koeffitsientlari kuzatiladi.

Ko'p omilli regressiya modeli tikuvchilik korxonalarida aylanma mablag'larning optimal tarkibini aniqlash uchun

$$A_{ay.m.i} = \beta_0 + \beta_1 IS_i + \beta_2 XN_i + \beta_3 MO_i + \beta_4 RK_i + \beta_5 TS_i + \varepsilon_i$$

ko'rinishida ishlatiladi. Bu yerda $A_{ay.m.i}$ i-davrdagi aylanma mablag'lar hajmi, IS_i ishlab chiqarish solishtirmasi, XN_i xomashyo narxlari indeksi, MO_i mavsumiy omil, RK_i raqobat koeffitsienti, TS_i texnologik takomillashtirish darajasi, $\beta_0, \beta_1, \dots, \beta_5$ model parametrlari, ε_i tasodifiy xatolikni bildiradi.

Prognozlashtirish modellari orasida vaqt qatorlari tahlili muhim o'rin tutadi. Eksponentsial silliqlash usuli $S_{t+1} = \alpha X_t + (1-\alpha)S_t$ formulasi orqali qo'llaniladi. Bu yerda S_{t+1} keyingi davr uchun prognoz, X_t joriy davrning haqiqiy qiymati, S_t joriy davrning prognoz qiymati, α silliqlash koeffitsienti ($0 < \alpha < 1$) hisoblanadi. Murakkab prognozlash uchun ARIMA modeli ishlatiladi:

$$ARIMA(p,d,q): (1-\varphi_1L-\varphi_2L^2-\dots-\varphi_pL^p)(1-L)^dX_t=(1+\theta_1L+\theta_2L^2+\dots+\theta_qL^q)\varepsilon_t$$

Bu yerda p autoregression tartibi, d differentsiatsiya darajasi, q harakatli o'rtacha tartibi, L kechikish operatori, φ, θ model parametrlaridir.

Tikuvchilik sohasining mavsumiy xususiyatlarini hisobga olgan holda mavsumiy prognozlashtirish modeli $X_t = T_t \times S_t \times C_t \times I_t$ ko'rinishida qo'llaniladi. Bu yerda T_t trend komponenti, S_t mavsumiy komponent, C_t tsiklik komponent, I_t tasodifiy komponentni bildiradi.

Model sifatini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar ishlatiladi. Determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 1 - (RSS/TSS)$ formulasi orqali hisoblanadi, bu yerda RSS qoldiq kvadratlarining yig'indisi, TSS umumiy kvadratlar yig'indisidir. Standart xatolik $SE = \sqrt{\left(\frac{RSS}{n-k-1}\right)}$ formulasi orqali aniqlanadi, bu yerda n kuzatuvlar soni, k erkli o'zgaruvchilar sonidir.

F -statistikasi $F = [R^2/(k)] / [(1-R^2)/(n-k-1)]$ orqali hisoblanadi.

Tikuvchilik korxonalarida ekonometrik modellarni amaliy qo'llash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: korxona faoliyatining kamida 3-5 yillik ma'lumotlarini yig'ish va tayyorlash, aylanma mablag'larga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, statistik paket dasturlar yordamida model tuzish, hisoblangan parametrlarning statistik ahamiyatligini tekshirish, tuzilgan model asosida kelajakdagi ehtiyojlarni hisoblash va prognoz natijalarini korxona rejalashtirish jarayoniga tatbiq etish (Едронова и Гарахина, 2017).

Ekonometrik modellashtirish usulining tikuvchilik korxonalarida qo'llanilishida bir qator cheklovlar mavjud. Tarixiy ma'lumotlarning to'liq va aniq emasligi model sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Iqtisodiy vaziyat, siyosiy barqarorlik va bozor konjunkturasining keskin o'zgarishi modelning ishonchliligini pasaytiradi. Korxona faoliyatidagi tubdan o'zgarishlar eski modellarning yaroqsizligiga olib keladi. Tikuvchilik sohasidagi mavsumiy o'zgarishlar odatiy statistik usullar bilan to'liq qamrab olinmasligi mumkin. Ekonometrik modellashtirish usuli tikuvchilik korxonalarida uchun aylanma mablag'larning optimal tarkibini aniqlash va kelajakdagi ehtiyojlarni prognozlashtirish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Bu usulning samarali qo'llanilishi uchun sifatli ma'lumotlar bazasi, malakali mutaxassislar va zamonaviy dasturiy ta'minot zarur. Model natijalarini boshqa usullar bilan birgalikda qo'llash orqali eng yaxshi natijalar erishish mumkin (Burxanov va Hamdamov, 2020).

Optimal tarkibni aniqlashda e'tiborga olinadigan ichki omillar qatoriga korxonaning ishlab chiqarish quvvati, mahsulot assortimenti, ishlab chiqarish jarayonining tashkil etilganlik darajasi, kadrlar malakasi, moliyaviy resurslarning mavjudligi va marketing strategiyasi kiradi.

Tashqi omillar esa bozor konjunkturasi, raqobat darajasi, xomashyo bozorida vaziyat, davlat siyosati, mavsumiy omillar va inflyatsiya darajasini o'z ichiga oladi.

Aylanma mablag'larning optimal tarkibi korxonaning moliyaviy barqarorligi va samarali faoliyatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Aylanma mablag'larning asosiy tarkibiy qismlari zahiralar, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari va boshqa qisqa muddatli aktivlardan iborat. Zahiralar odatda aylanma mablag'larning 50-70 foizini tashkil etib, xomashyo, materiallar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Zahiralar tarkibidagi optimal nisbat moliyaviy barqarorlikning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Xomashyo va materiallar zahiralarini ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi, ammo ularning haddan tashqari ko'p bo'lishi mablag'larning muzlab qolishiga olib keladi. Optimal xomashyo zahiri $X = Q \times T$ formulasi orqali aniqlanadi, bu yerda Q kunlik iste'mol, T ta'minot davrini bildiradi. Yarim tayyor mahsulotlar zahiri $Y = P \times T \times K$ formulasi bilan hisoblanadi, bu yerda P kunlik ishlab chiqarish, T texnologik tsikl, K qiymat koeffitsientidir. Tayyor mahsulot zahiri $Z = S \times T$ ko'rinishida aniqlanadi, bu yerda S kunlik sotish hajmi, T tovar aylanish davrini bildiradi (Гапаев, 2021).

1 jadval

Aylanma mablag'lar moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi yo'nalishlar

№	Ko'rsatkich nomi		Hisoblash usuli	Chegaraviy me'zoni
1	Likvidlilik koeffitsiyenti (L)	Joriy (L_j)	Aylanma aktivlar / qisqa muddatli majburiyatlar	$1.5 \leq L_j \leq 2.5$ bo'lsa optimal qiymat $L_j < 1.5$ bo'lsa Likvidlik yetishmovchik bor $L_j > 2.5$ resurslardan nosamarali foydalanilmoqda
		Tez (L_t)	(aylanma aktivlar - zahiralar) / qisqa muddatli majburiyatlar	$0.7 \leq L_t \leq 1.0$ bo'lsa optimal qiymat $L_t < 0.7$ bo'lsa moliyaviy qiyinchilik bor $L_t > 1.0$ bo'lsa moliyaviy holat yahshi
		Mutloq (L_m)	Pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar/qisqa muddatli majburiyatlar	$0.2 \leq L_m \leq 0.5$ bo'lsa optimal qiymat $L_m < 0.2$ bo'lsa pul tanqisligi mavjud $L_m > 0.5$ bo'lsa pul mablag'lari ortiqcha (samarasiz)
2	Aylanma mablag'lar rentabelligi (R_{ayl})		$R_{ayl} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{O'rtacha ayl. mab.}} * 100$	$R_{ayl} \geq 20 \%$
3	Aylanma mablag'larning aylanish tezligi (D_a)		$D_a = \frac{\text{O'rtacha ayl. mabl.}}{\text{Yillik tushum}} * 360$	Korxona faoliyat turiga qarab, masalan tikuvchilik korxonasida: 65-85 kun yahshi 86-120 kun qoniqarli 121 kundan ortiq yomon
4	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (M_m)		$M_m = \frac{\text{O'zmablag'lari}}{\text{Majburiyatlar}}$	$M_m \geq 1$
5	Pul oqimi likvidlili (P_o)		$P_o = \frac{\text{Operatsion pul oqimi}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$	$P_o \geq 1.2$

Debitorlik qarzlarning optimal darajasi korxonaning sotish siyosati va mijozlar bilan munosabatlarga bog'liq. Debitorlik qarzlarning haddan ortiq ko'payishi korxonaning pul mablag'laridan mahrum bo'lishiga, aksincha, haddan tashqari kamayishi sotishlarning pasayishiga olib kelishi mumkin. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti $K = S / D$ formulasi orqali hisoblanadi, bu yerda S yillik sotish hajmi, D o'rtacha debitorlik qarzlari miqdoridir. Aylanish davri $T = 365 / K$ formulasi bilan aniqlanadi.

Pul mablag'larining optimal darajasi korxonaning likvidligini ta'minlash va kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zarur. Pul mablag'larining kam bo'lishi to'lov qobiliyatining yo'qolishiga, ortiqcha bo'lishi esa inflyatsiya ta'sirida qiymatning pasayishiga olib keladi. Optimal pul zahiri Baumol modeli bo'yicha $Q = \sqrt{(2DT/r)}$ formulasi orqali aniqlanadi, bu yerda D yillik ehtiyoj, T bir marta tranzaksiya xarajatlari, r foiz stavkasini bildiradi.

Aylanma mablag'larning moliyaviy barqarorlikka ta'siri bir necha asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, likvidlik ta'minoti: aylanma mablag'larning etarli miqdori va to'g'ri taqsimlanishi korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkonini beradi.

Ikkinchidan, rentabellik ta'minoti: aylanma mablag'larning samarali ishlatilishi korxonaning foydaliligi va daromadlilik darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy mustaqillik: aylanma mablag'larning o'z manbalardan moliyalashtirilish darajasi korxonaning moliyaviy mustaqilligini belgilaydi.

To'rtinchidan, pul oqimi likvidligi: pul mablag'larining kirishi va chiqishi o'rtasidagi muvozanat korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash va chegaraviy me'zonlari 1-jadvalda aks ettirilgan (Салимьянова и Тапасов, 2017).

Aylanma mablag'larning optimal tarkibini boshqarish strategiyalari uch asosiy yondashuvni o'z ichiga oladi:

1) Konservativ strategiya: yuqori likvidlikni ta'minlash uchun aylanma mablag'larning katta qismini pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar shaklida saqlash. Bu yondashuv xavfni kamaytiradi, lekin rentabellikni pasaytirishi mumkin.

2) Agressiv strategiya: aylanma mablag'larning katta qismini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish orqali yuqori rentabellik ta'minlash. Bu strategiya yuqori foyda keltiradi, lekin likvidlik riskini oshiradi.

3) Muvozanatli strategiya: likvidlik va rentabellik o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash.

Xulosa va takliflar.

Tikuvchilik korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, aylanma mablag'larning samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish tavsiya etiladi.

1) Zahiralarini boshqarishni takomillashtirish doirasida ABC-tahlil usuli qo'llanib, materiallar muhimlik darajasiga ko'ra tasniflanadi. "Just-in-time" tizimini joriy qilish orqali zahiralar minimal darajada saqlanib, ayni paytda ishlab chiqarish jarayoni to'xtatilmaydi. Avtomatlashtirilgan zahiralarini boshqarish tizimlari real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish va optimal buyurtma miqdorlarini aniqlash imkonini beradi.

2) Debitorlik qarzlarni boshqarishda mijozlarning kredit tarixini muntazam tahlil qilish, to'lov shartlarini optimizatsiya qilish va qarzlarni undirib olish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Faktoring va boshqa moliyaviy vositalardan foydalanish orqali qarzlar tezroq naqd pulga aylantiriladi.

3) Pul aylanmasini tezlashtirish uchun elektron to'lov tizimlarini keng joriy qilish, bank xizmatlari xarajatlarini kamaytirish va qisqa muddatli investitsiya imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

4) Zamonaviy raqamli texnologiyalar aylanma mablag'larni boshqarishda inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. ERP tizimlar korxonaning barcha jarayonlarini integratsiya qilib, real vaqt rejimida to'liq tahlil imkonini beradi. Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish algoritmlari talabni aniq prognozlash va zahiralar darajasini optimal holatda saqlashga yordam beradi. Blockchain texnologiyasi yetkazib berish zanjirini nazorat qilish va shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Internet of Things (IoT) orqali real vaqt rejimida zahiralar holati va ishlab chiqarish jarayonlari haqida doimiy ma'lumot olinadi.

5) Tikuvchilik korxonalarida aylanma mablag'larning optimal tarkibini aniqlash va samarali boshqarish uchun kompleks yondashuvni qo'llash zarur. Bu yondashuvda barcha elementlar bir butun tizim sifatida ko'rib chiqiladi va ularning o'zaro ta'siri hisobga olinadi. Doimiy monitoring tizimini joriy qilish orqali aylanma mablag'lar holati muntazam nazorat qilinadi va o'zgarishlarga tezkor munosabat bildiriladi.

6) Xodimlarni doimiy tayyorlash va malaka oshirish ham muhim omil hisoblanadi. Aylanma mablag'larni boshqarish bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalar egasi bo'lgan kadrlar korxonaning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi. Strategik rejalashtirish jarayonida uzoq muddatli rivojlanish rejalarida aylanma mablag'lar samaradorligi alohida hisobga olinishi kerak.

7) Yetkazib beruvchilar, mijozlar va moliyaviy institutlar bilan samarali hamkorlik o'rnatish aylanma mablag'larning optimal aylanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini tuzish, o'zaro ishonchli munosabatlarni rivojlantirish va risklarni birgalikda boshqarish orqali barcha tomonlar uchun foydali natijalar erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, tikuvchilik korxonalarida aylanma mablag'larning optimal tarkibi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Aylanma mablag'larning asosiy tarkibiy qismlari - zahiralar (60-70%), debitorlik qarzlari (15-25%) va pul mablag'lari (10-15%) o'rtasidagi to'g'ri nisbat korxonaning samarali faoliyatini belgilaydi.

Tadqiqot davomida normativ, tahliliy va ekonometrik modellash usullari yordamida aylanma mablag'larning optimal tarkibini aniqlash imkoni yaratildi. Ayniqsa, regressiya tahlili va korrelyatsiya tahlili tikuvchilik korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali natijalar berdi. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari - likvidlik koeffitsiyentlari, rentabellik, aylanish tezligi va moliyaviy mustaqillik darajasi - aylanma mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

Amaliy tavsiyalar sifatida ABC-tahlil usulini qo'llash, "Just-in-time" tizimini joriy etish, debitorlik qarzlarni samarali boshqarish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish taklif etildi. ERP tizimlari, sun'iy intellekt va IoT texnologiyalari aylanma mablag'larni boshqarishda inqilobiy o'zgarishlar yaratmoqda.

Tikuvchilik korxonalari uchun aylanma mablag'larning optimal tarkibini to'g'ri aniqlash va kompleks yondashuvda boshqarish zamonaviy bozor sharoitlarida raqobatbardoshlikni oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli muvaffaqiyat qozonish uchun zaruriy shartdir.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Burxanov, A.U. & Hamdamov, O.N. (2020). Moliyaviy menejment. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi.

Egamberdiyev, E. & Qudratov, G'. (2004). Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent Moliya instituti, 129 b.

Maxmudov, E.X. (2004). Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Qosimov, X.Q., Aslanova, D.X. & Ergashev, R.E. (2008). Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri.

Voxobov, A., Ibroximov, A. & Ishonqulov, N. (2005). Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa AK.

Авдеева, И.А. & Проскурина, И.Ю. (2013). Повышение эффективности использования основных производственных фондов. Актуальные направления научных исследований XXI века: теория и практика, (3), сс. 251–256.

Гараев, И.И. (2021). Особенности управления основным капиталом предприятия. Modern Science, (1–2), сс. 41–42.

Едронова, В.Н. & Гарахина, И.В. (2008). Комплексный метод оценки амортизационных отчислений и контроль за их целевым использованием. Экономический анализ: теория и практика, (12).

Салимьянова, З.К. & Тарасов, А.А. (2017). Пути улучшения использования основных фондов организации. В: Экономическая безопасность: правовые, экономические, экологические аспекты. Курск: Университетская книга, сс. 301–303.